

TRANSPORT VOSITALARINI IXTIYORIY SUG'URTA QILISHGA OMMAVIY OFERTA

"KAPITAL SUG'URTA" AJ Bosh direktorining 2025 yil 4 martdagi №121-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

"KAPITAL SUG'URTA" AJ Bosh direktorining 12.05.2025 yil №263-sonli, 14.08.2025 yil №484-sonli buyruqlari o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Ushbu Ommaviy Oferta (keyingi o'rinlarda "Oferta" deb yuritiladi) "KAPITAL SUG'URTA" aksiyadorlik jamiyati tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning cheklanmagan doirasiga Ofertada ko'rsatilgan shartlarda Sug'urta lovcining rasmiy veb-sayti yoki Internet xizmati (avtomatlashtirilgan axborot tizimi, mobil ilovasi) orqali transport vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish shartnomasini tuzish uchun yo'naltirilgan taklifdir.

Mazkur Oferta sug'urta shartnomasini (polisini) rasmiylashtirish sanasida amalda bo'lgan transport vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish Qoidalarini (keyingi o'rinlarda "sug'urta Qoidalarini" deb yuritiladi) bilan tartibga solinadi. Sug'urta Qoidalarini va ushbu Oferta www.kapital.sugurta.uz rasmiy veb-saytida va Sug'urta lovcining Internet xizmatlarida umumfoydalanish uchun ochiq hisoblanadi.

Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va belgilangan sug'urta mukofotini to'lash, oferta shartlarining aksepti va Sug'urta qildiruvchining transport vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish shartnomasini tuzishga roziligi hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlangach, unga elektron sug'urta polisi yuboriladi va sug'urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, ushbu Ofertani so'zsiz qabul qilish (aksept qilinishi) orqali Sug'urta qildiruvchi:

- ushbu Oferta shartlarini, jumladan sug'urta shartlarini qabul qilganligini tasdiqlaydi;

- polisini rasmiylashtirish uchun taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga, shu jumladan tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, taqdim etish, tarqatishga, 5 yil muddatga sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda ishlov berish yo'li bilan uzatishga, shuningdek, ichki hujjat aylanishini ta'minlash bo'yicha sug'urta shartlariga ko'ra o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarish uchun ularni uchinchi shaxslarga o'tkazishga o'zining, shuningdek Naf oluvchi(lar) va Haydovchi(lar)ning roziligini bildiradi va tasdiqlaydi.

Agar sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan bo'lsa, shuningdek, Sug'urta lovchi tomonidan akseptni bekor qilish to'g'risidagi bildirishnoma akseptga qadar yoki u bilan bir vaqtda olingan bo'lsa, aksept olinmagan hisoblanadi.

"Sug'urta shartnomasi" va "Sug'urta polisi" atamalarini bundan keyin matnda ushbu elektron hujjatga nisbatan bir xil ma'noga ega.

OMMAVIY OFERTA SHARTLARI ASOSIDA TUZILAYOTGAN TRANSPORT VOSITALARINI IXTIYORIY SUG'URTA QILISH SHARTNOMASINING (SUG'URTA POLISINING) ASOSIY SHARTLARI

1-BO'LIM. ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFLARI

1.1. Ushbu ofertada qo'llanilayotgan atamalar quyidagi ma'nolarga ega:

Sug'urta lovchi – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Lisenziya asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiradigan "KAPITAL SUG'URTA" aksiyadorlik jamiyati.

Sug'urta qildiruvchi – ushbu Sug'urta Ofertasi shartlari asosida Sug'urta lovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzgan va belgilangan sug'urta mukofotini to'lagan tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki huquqiy layoqatga ega jismoniy shaxs (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs yoki chet el fuqarosi).

Sug'urta lovcining hamkori – Sug'urta lovcining servisiga qo'shilgan hamda sug'urta mahsulotlarini targ'ib qilish yoki realizatsiya qilish bo'yicha kelishuvning tomoni hisoblangan, tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Sug'urta polisi – ushbu Oferta va Sug'urta qoidalarini shartlari asosida Sug'urta qildiruvchi va Sug'urta lovchi o'rtasida Sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi, to'langan sug'urta muddati uchun Sug'urta qildiruvchiga beriladigan elektron hujjat.

Sug'urta tavakkalchiligi – yuz berishi ehtimol bo'lgan holatga nisbatan sug'urta amalga oshiriladigan voqea. Sug'urta tavakkalchiligi sifatida nazarda tutilayotgan hodisa ehtimollik va tasodifiylik alomatlariga ega bo'lishi shart.

Sug'urta voqeasi – sug'urta muddatida va sug'urta hududida yuz berib, sug'urta hodisasi alomatlariga ega bo'lgan voqea.

Sug'urta hodisasi – ushbu Ofertada yoki Sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan, sug'urta muddatida vujudga kelgan va sug'urta hududi doirasida sodir bo'lgan, bir yoki bir nechta voqealar bo'lib, ular ro'y berishi natijasida Sug'urta lovcining Sug'urta qildiruvchiga yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxsga sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyati yuzaga keladi.

Sug'urta qiymati – transport vositasi yoki qo'shimcha jihozlarning, sug'urta manfaati bog'langan qiymati bo'lib, u Sug'urta shartnomasi tuzilgan paytda (Sug'urta polisi rasmiylashtirilgan paytda) tomonlar kelishuvi asosida belgilanadi va transport vositasi joylashgan erdagi uning haqiqiy qiymatiga teng bo'ladi.

Sug'urta puli – Sug'urta shartnomasi tuzilgan paytda (Sug'urta polisi rasmiylashtirilgan paytda) tomonlar kelishuvi asosida belgilanadigan va polisda ko'rsatiladigan pul miqdori bo'lib, shu miqdor doirasida Sug'urta lovchi sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda Sug'urta qildiruvchiga yoki ushbu summani olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxsga sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladi.

Sug'urta mukofoti – Sug'urta qildiruvchi ushbu Ofertada belgilangan tartib va muddatlarda Sug'urta lovchiga to'lash majburiyatini oladigan sug'urta uchun to'lov.

Sug'urta to'voni — Sug'urta hodisasi natijasida kelib chiqqan zararni qoplash uchun, Sug'urta shartnomasida (Sug'urta polisida, Ofertada) ko'rsatilgan sug'urta puli doirasida, Sug'urta lovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga yoki ushbu summani olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxsga to'lanadigan pul miqdori.

Sug'urta davri — Sug'urta polisida sug'urta davrining boshlanishi sifatida ko'rsatilgan kunning 00:00 soatidan boshlab, polisida ko'rsatilgan tugash kunining 24:00 soatigacha bo'lgan vaqt oralig'i. Sug'urta lovchi, Sug'urta qildiruvchi tomonidan belgilangan sug'urta mukofoti/birinchi/navbatdagi sug'urta badali o'z vaqtida to'langan taqdirda, Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davri va sug'urta hududi doirasida ro'y bergan sug'urta hodisalari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajaradi.

Zarar — Sug'urta hodisasi yuz berganligi munosabati bilan Sug'urta qildiruvchi tomonidan qilingan yoki kelgusida qilinishi lozim bo'lgan xarajatlar.

Transport vositalari (keyingi o'rinlarda – «TV») — engil va yuk avtomobillari, tyagalar va ular asosida yaratilgan maxsus mashinalar, avtobuslar, mikroavtobuslar va ular asosidagi maxsus transport vositalari, o'z-o'zidan harakatlanuvchi mashinalar va mexanizmlar, shuningdek, tirkamalar (jumladan, tirkama mashinalar) va yarimtirkamalar, mobil transport vositalari va shunga o'xshash boshqa vositalar. Sug'urtaga faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yoki ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan, yaroqli holdagi transport vositalari qabul qilinadi.

Transport vositasining qo'shimcha jihozlari (keyingi o'rinlarda – «QJ») — transport vositasiga stasionar ravishda o'rnatilgan (ya'ni montaj talab etuvchi), vakolatli organlar tomonidan ruxsat etilgan, zavod komplektatsiyasi tarkibiga kirmaydigan, amaldagi standartlar, foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar va boshqa normativ-texnik hujjatlar talablariga javob beruvchi mexanizmlar, uskunalar, moslamalar, asbob-uskunalar va boshqa jihozlar (masalan, mexanik yoki elektron o'g'irlikka qarshi qurilmalar, videoapparat va h.k.), jihozlar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi zavodning standart to'plamiga kirmaydigan, olib qo'yiladigan tele va radio uskunalar, avtomagnitola, monitorlar, radiotelefonlar, antiradarlar, yonilgi chiqindisini kamaytiruvchi qurilmalar (glushitellar), diskalar (g'ildiraklar) sug'urtaga qabul qilinmaydi.

Sug'urtalangan TV — Sug'urta shartnomasida (Sug'urta polisida) ko'rsatilgan va unga nisbatan sug'urta himoyasi taqdim etiladigan transport vositasi.

Nobud bo'lish (yo'qotish) — Sug'urtalangan TV yoki QJ shunday darajada shikastlangan holatki, uni tiklash uchun talab qilinadigan xarajatlar uning haqiqiy qiymatiga teng yoki undan oshiq, shuningdek, TVning o'g'irlik natijasida to'liq yo'qotilishi tushuniladi.

Shikastlanish — Sug'urtalangan TV yoki QJ va/yoki ularning ayrim qismlari va detallariga yo'l-transport hodisasi, tashqi mexanik ta'sir, yong'in, portlash yoki tabiiy ofatlar natijasida etkazilgan tasodifiy jismoniy shikast.

O'g'irlik (olib qochish) -transport vositasida kalitlar va uning pultlari (brelokari) mavjud bo'lmagan holda olib qochilishi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan tegishli moddaga asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kvalifikatsiya qilinadigan o'g'irlik, talonchilik yoki qo'rqitish bilan amalga oshirilgan hujum natijasida Sug'urtalangan TV va/yoki qo'shimcha jihozlar (agar sug'urta qilingan bo'lsa) ning yo'qotilishi.

TV uchinchi shaxslar tomonidan shikastlanishi - Sug'urtalangan TV yoki QJga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan sodir etilgan qonunga zid, aybdorlikka asoslangan, amaldagi qonunchilikka muvofiq jinoiy, ma'muriy yoki fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilangan (o'g'irlik holatlari bundan mustasno) TV yoki QJning yo'qotilishi (yoki yo'q qilinishi), shikastlanishiga bevosita sababchi bo'lgan harakatlar.

Haydovchi — transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilgan tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasiga, transport vositalari egalarining majburiy fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha amaldagi sug'urta polisiga, hamda Sug'urta qildiruvchi (TV egasi) tomonidan berilgan yozma ruxsatnoma yoki boshqa qonuniy asosga ega bo'lgan jismoniy shaxs.

Yo'lovchilar — sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda Sug'urtalangan TVda bo'lgan, shuningdek, unga chiqayotgan yoki undan tushayotgan shaxslar (Haydovchidan tashqari).

Sug'urtalangan shaxslar — sug'urta hodisasi yuz bergan paytda Sug'urta qildiruvchining sug'urtalangan TVsini salonida bo'lgan, shuningdek, unga chiqayotgan yoki tushayotgan Haydovchi va Yo'lovchilar.

Uchinchi shaxslar — Sug'urta qildiruvchi, Naf oluvchi va ularning ishchilari, Haydovchi, Sug'urtalangan shaxslar va Jabrlanuvchilardan tashqari bo'lgan har qanday boshqa shaxslar.

Jabrlanuvchilar (boshqa shaxslar) — Sug'urtalangan TVdan foydalanish jarayonida hayotiga, sog'lig'iga va/yoki mulkiga zarar etkazilgan shaxslar.

Yo'l-transport hodisasi (keyingi o'rinlarda – YTH) — Sug'urtalangan TV yo'lda harakatlanishi jarayonida va uning ishtirokida sodir bo'lgan hodisa: urilish, ag'darilish, to'qnashuv va shunga o'xshash holatlar, jumladan turg'oqda boshqa mexanik TV tomonidan etkazilgan shikastlar, bunda ushbu tushuncha sug'urta hodisasi sodir bo'lgan sanada O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan Yo'l harakati qoidalarida belgilangan mazmunda qo'llaniladi.

Tashqi mexanik ta'sir - Sug'urtalangan TV yoki QJga quyida keltirilgan holatlar natijasida ta'sir ko'rsatilishi:

- qattiq jismlar (jumladan, qor, muz, ustunlar, daraxtlar, yo'l belgilari, reklama konstruksiyalari va h.k.) tushishi, urilishi, shuningdek Sug'urtalangan TV yoki QJning qattiq jismlar bilan o'zaro ta'siri;

- boshqa transport vositalarining g'ildiraklari ostidan shag'al, tosh va boshqa qattiq zarrachalarning sochilishi;

- Sug'urtalangan TVning evakuatorda tashilishi paytida tushib ketishi yoki boshqa TV va/yoki buyumlar bilan ta'siri;

- ko'priklar yoki tonnellar, ularning qismlari (konstruktiv elementlari) vayron bo'lishi, yiqilishi, shuningdek er qatlami, yo'l qoplamasi yoki sun'iy inshootlar quvurining cho'kishi, siljishi (harakatlanishi);

- hayvonlar ta'siri — Sug'urtalangan TV yoki QJga hayvonlar tomonidan tashqi shikast etkazilishi, Sug'urtalangan TVning saloni va faqat ichki tomon elementlariga etkazilgan zararlari bundan mustasno.

Yong'in — sug'urtalangan TVga ochiq alanga manbalari tomonidan tashqi yoki ichki ta'sir natijasida yuzaga kelgan, nazorat qilib bo'lmaydigan yonish jarayoni.

Portlash — qisqa vaqt ichida cheklangan hajmda katta miqdorda energiya ajralishi yoki chiqishi natijasida vujudga keladigan, gazlar yoki bug'larning kengayishi bilan bog'liq vayron qiluvchi jarayon.

Tabiiy ofatlar — tabiat hodisalari bo'lib, ular intensivligi, tarqalish ko'lamini va davomiyligiga ko'ra insonlarga, iqtisodiyot ob'ektlariga va atrof-muhitga halokatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tabiiy ofatlar deganda, O'zbekiston

Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan mezonlarga javob beradigan tabiiy kelib chiqishdagi favqulodda holatlar va/yoki xavfli gidrometeorologik hodisalar tushuniladi.

Ushbu Oferta doirasida tabiiy ofatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: zilzila, ko'chki, tog' yopirilishi, qorko'chkisi, kuchli (shtormli) shamollar, bo'ron, girdob, jala, chaqmoq chaqishi, toshqin, suv toshishi va sel, tuman, muzlamalar, do'l.

TVEFJMSQ qoidalari — 2008 yil 24 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 141-sonli qarori bilan tasdiqlangan Transport vositalari ega larining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari.

Shartsiz franshiza — zararni belgilangan bir qismi bo'lib, uning doirasida Sug'urtalovchi hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi va zararni qoplash bo'yicha talablarni ko'rib chiqmaydi.

Shartsiz franshiza miqdori sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) tarkibida to'lanishi kerak bo'lgan mablag'dan chiqarib tashlanadi.

Sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma — Sug'urtalovchi tomonidan rasmiylashtirilgan hujjat bo'lib, u Sug'urta hodisasi yuz berganligini tasdiqlaydi va sug'urta tovonini miqdorini belgilaydi. Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma Sug'urtalovchining va Sug'urta qildiruvchining vakolatli shaxslari hamda sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs tomonidan imzolalanadi.

1.2. Ushbu Ofertada qo'llanilgan barcha atamalar faqat ushbu Ofertada belgilab berilgan ma'noda tushuniladi. Agar ushbu Ofertada ayrim atamalarga ta'rif berilmagan bo'lsa, ularning ma'nosi O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

2-BO'LIM. SUG'URTA OB'EKT LARI

2.1. Sug'urta ob'ektlari sifatida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan quyidagi mulkiy manfaatlar tushuniladi:

2.1.1. Sug'urtalangan TV va/yoki unga o'rnatilgan qo'shimcha jihozlarning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), shikastlanishi yoki o'g'irlanishi xavfi bilan bog'liq **Sug'urta qildiruvchining** manfaatlari;

2.1.2. Sug'urta qildiruvchi (haydovchi) tomonidan TVdan foydalanish jarayonida ro'y bergan baxtsiz hodisa natijasida **Sug'urtalangan shaxslarning** hayoti va sog'lig'iga etkazilgan zarar bilan bog'liq manfaatlari;

2.1.3. Sug'urtalangan TVdan foydalanish jarayonida jabrlanuvchi (boshqa shaxslar)ning hayoti, sog'lig'i va/yoki mol-mulkiga etkazilgan zarar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq fuqarolik javobgarligining vujudga kelishi xavfi bilan bog'liq **Sug'urta qildiruvchining, uning xodimlari yoki haydovchining manfaatlari.**

3-BO'LIM. SUG'URTA TAVAKKALCHILIK LARI VA SUG'URTA HODISALARI

3.1. Sug'urta shartnomasida (polisda, Ofertada) nazarda tutilgan va ro'y berishi natijasida Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyati yuzaga keladigan voqea Sug'urta hodisasi hisoblanadi.

3.2. Sug'urta shartnomasi (polisi) tuzilgan ehtimoliy voqea sug'urta tavakkalchiligi bo'lib, uning yuz berishi holatiga sug'urta amalga oshiriladi.

3.3. Ushbu Ofertaga muvofiq quyidagi tavakkalchiliklar yuz bergan taqdirda sug'urta himoyasi taqdim etiladi:

3.3.1. **«ZARAR»:**

Sug'urta davri va sug'urta hududida sodir bo'lgan TV yoki QJning nobud bo'lishi (yo'qotilishi), o'g'irlanishi (olib qochilishi), shikastlanishi, hamda uchinchi shaxslar tomonidan TV va/yoki QJga etkazilgan zararlar.

3.3.1.1. **Maxsus istisnolar:**

Sug'urtalovchi 3.3.1-bandda ko'rsatilgan tavakkalchilik bo'yicha quyidagilar uchun sug'urta tovonini to'lamaydi:

a) Sug'urtalangan TVning tabiiy eskirishi (qo'shimcha jihozlar bundan mustasno);

b) Sug'urtalangan TV yoki QJning tovar ko'rinishi yo'qolishi, ishlab chiqaruvchi zavod nuqsoni (brak);

v) Shinadagi shikastlar, harakatlanish qismidagi texnik nosozliklar — yo'l qoplamasining nosozligi, yoki o'tkir buyumlarga urilish natijasida kelib chiqqan holatlar, agar bunday shikastlar natijasida Sug'urtalangan TVning o'ziga shikast etkazilmagan yoki uning yo'qotilishiga sabab bo'lmagan bo'lsa;

g) Sug'urtalangan TV yoki QJning ehtimoliy o'zgarishi va/yoki takomillashuvi bilan bog'liq Sug'urta qildiruchi tomonidan qilingan xarajatlar, shuningdek Sug'urtalangan TV yoki QJdan foydalanish qoidalariga Sug'urta qildiruchi va/yoki Haydovchi tomonidan rioya etilmagan holatlar;

d) TVning ekspluatatsiyasi jarayonida, uning ehtiyot qismlari, tizimlari va agregatlarida yuz bergan buzilish, ishdan chiqish, nosozlik, shu jumladan chet el jismlari yoki moddalarning agregatlar ichiga kirib borishi (masalan, gidroudar va h.k.) natijasida etkazilgan zarar;

e) ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan tayyorlanmagan avtoshinalarning g'ildirak disk lari, g'ildirakning bezak elementlari (qopqoqlari) shikastlanishi yoki yo'qotilishi natijasida etkazilgan zarar.

3.3.2. **«BAXTSIZ HODISA»:**

Sug'urtalangan shaxsning sug'urta davri va sug'urta hududi doirasida sodir bo'lgan yo'l-transport hodisasi yoki sug'urtalangan TVni noqonuniy egallash maqsadida amalga oshirilgan talonchilik hujumi oqibatida yuz bergan baxtsiz hodisa tufayli tan jarohatlari olishi va natijada quyidagi oqibatlar kelib chiqishi:

• Sug'urtalangan shaxsning travmatik jarohatlanishi;

• baxtsiz hodisa sodir bo'lgan kundan boshlab olti oy (6 oy) ichida yuz bergan Sug'urtalangan shaxsning o'limi.

3.3.2.1. **Maxsus istisnolar:**

3.3.2-bandda ko'rsatilgan tavakkalchilik bo'yicha Sug'urtalovchi quyidagi holatlar natijasida etkazilgan zarar (jarohat)ni qoplamaydi:

a) Sug'urtalangan shaxslar tomonidan o'zini o'ldirish yoki o'zini o'ldirishga urinish holatlari;

b) jinoiy harakatlarda ishtirok etish;

v) Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda Sug'urtalangan TVni boshqargan shaxsda psixik buzilishlar yoki og'ir asabiy sindromlar mavjud bo'lishi;

g) Sug'urtalangan shaxslar tomonidan sug'urta hodisasini yuzaga keltirishga qaratilgan qasddan amalga oshirilgan harakatlar (faqat yo'lovchilar tomonidan inson hayoti va sog'lig'ini saqlab qolish maqsadida qilingan harakatlar bundan mustasno).

3.3.3. **«FUQAROLIK JAVOBGARLIGI»:**

Sug'urta qildiruvchi (Haydovchi) tomonidan sug'urta davri va sug'urta hududi doirasida Sug'urtalangan TVdan foydalanish jarayonida boshqa shaxslarning (jabrlanuvchilarning) hayoti, sog'lig'i va/yoki mol-mulkiga zarar etkazishi, agarda:

a) zarar etkazilganligi fakti va uning miqdori jabrlanuvchilar (Naf oluvchila) tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq bayon etilgan moddiy talablar hamda jabrlanuvchiga etkazilgan zararni qoplash bo'yicha sud qarori bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim;

b) etkazilgan zarar miqdori, TVEFJMSQ bo'yicha to'lanadigan zarar miqdoridan ortiq bo'lishi kerak.

3.3.3.1. **Maxsus istisnolar:**

3.3.3-bandda ko'rsatilgan tavakkalchilik bo'yicha Sug'urtalovchi quyidagi holatlarda etkazilgan zarar (jarohat)ni qoplamaydi:

a) Zarar ko'rish holatlari jabrlanuvchining qasddan qilgan harakatlari, engilmas kuch ta'siri yoki uchinchi shaxslarning g'ayrinoqonuniy harakatlari natijasida sug'urtalangan TSning Sug'urta qildiruvchi (javobgarlik xavfi sug'urta qilingan shaxs) egaligidan chiqib ketishi;

b) Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda Sug'urtalangan TVda bo'lgan Haydovchi va Yo'lovchilarning hayoti va sog'lig'iga etkazilgan zarar holatlarida;

v) Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda Sug'urtalangan TV ichida bo'lgan uchinchi shaxslarning mol-mulkiga etkazilgan zarar holatlarida;

g) Tabiiy ofatlar natijasida va Jabrlanuvchilarning shikastlangan mol-mulkining tovar ko'rinishi yo'qolishi bilan bog'liq zararni qoplash bo'yicha talablar bo'yicha.

3.3.3.2. **Maxsus shartlar:**

Sug'urtalovchi quyidagilarni tasdiqlaydi va ularga rozilik bildiradi:

a) Sug'urtalovchi bilan kelishmasdan, boshqa shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga va/yoki mol-mulkiga etkazilgan zarar bo'yicha bildirilgan talablarni to'liq yoki qisman tan olmaslik, o'z ixtiyori bilan etkazilgan zararni qoplamaslik, shuningdek bunday talablarni hal etish va to'lash yuzasidan o'z zimmasiga qanday bo'lmasin majburiyatlarni olmaslik;

b) Sug'urtalovchining talabi bilan unga yozma ishonchnoma berishi lozim — ushbu ishonchnoma orqali Sug'urta qildiruvchi nomidan quyidagi holatlarda uning manfaatlarini ifoda etish huquqi beriladi: zararlarni bartaraf etish, da'vo va arizalarni ko'rib chiqish, etkazilgan jismoniy jarohatlar va/yoki moddiy zararni ko'zdan kechirish dalolatnomalarini tuzish, jabrlanuvchilar bilan kelishuvlar imzolash, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qarshi da'volar tayyorlash, sud va boshqa organlarda Sug'urta qildiruvchi manfaatlarini himoya qilish;

v) Agar zarur deb topsa, Sug'urtalovchi jismoniy jarohatlanish va/yoki moddiy zarar etkazilishi hamda sug'urta tovonini to'lash bilan bog'liq da'vo yoki talabni hal etish masalalari bo'yicha bevosita boshqa shaxslar bilan o'zaro hamkorlik qilish huquqiga ega;

g) Agar transport vositalari egalariining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi shartnoma (keyingi o'rinlarda — TVEFJMSQ) va ixtiyoriy sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) bo'yicha mol-mulkka etkazilgan zarar yuzasidan sug'urta tovonini to'lash majburiyati yuzaga kelsa, birinchi navbatda majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini to'lanadi, etmagan qismi esa ixtiyoriy sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) doirasida qoplanadi. Bunda majburiy va ixtiyoriy sug'urta shartnomalari bo'yicha to'langan umumiy sug'urta tovonini jabrlanuvchiga etkazilgan moddiy zararning haqiqiy miqdoridan ortiq bo'lmashligi shart.

4 - BO'LIM. ISTISNOLAR

4.1. Ushbu Ofertaga muvofiq quyidagi holatlarda sodir bo'lgan voqealar sug'urta hodisasi deb hisoblanmaydi:

a) Sug'urtalangan TV va/yoki QJ uning ixtiyorida bo'lgan Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchi yoki ularning haydovchisi tomonidan sug'urta hodisasini yuzaga keltirishga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar natijasida sodir bo'lgan holatlar, bunda Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchi yoki ularning haydovchisi tomonidan fuqarolik burchini bajarish yoki Sug'urtalovchi yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish maqsadida amalga oshirilgan harakatlar bundan mustasno;

b) Sug'urta qildiruvchi yoki Haydovchi tomonidan sug'urta ob'ekti, zararning sabablari va hajmi to'g'risida oldindan bilgan holda haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni taqdim etishi, shuningdek voqea holatlari yoki zarar miqdorini tasdiqlash uchun soxtalashtirilgan hujjatlarni taqdim etishi;

v) Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchi yoki sug'urtalangan TVni vaqtincha boshqarish huquqiga ega bo'lgan har qanday shaxslar tomonidan sug'urta tovonini olish maqsadida sodir etilgan qonunga zid harakatlar, shu jumladan firibgarlik holatlari;

g) Sug'urtalangan TV va/yoki QJdan foydalanish jarayonida ekspluatatsiya qoidalari, ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan berilgan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar, qoidalar, me'yorlar, qo'llanmalar va boshqa normativ hujjatlar, yong'in xavfsizligi qoidalari, yonuvchi va portlovchi moddalarni tashish qoidalari, shuningdek nosoz holdagi Sug'urtalangan TVdan foydalanish talablarining buzilishi;

d) Sug'urtalangan TVni amaldagi qonunchilikka muvofiq tartibda texnik ko'rikdan o'tkazilmagan holda ekspluatatsiya qilish, shuningdek amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda sertifikatlanmagan gaz-ballon uskunalari o'rnatilgan TVdan foydalanish (ushbu istisno ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan gaz-ballon uskunasini bilan jihozlangan transport vositasiga nisbatan qo'llanilmaydi);

e) Sug'urtalangan TVda ishlab chiqaruvchi zavodning texnik xususiyatlariga muvofiq belgilangan me'yordan ortiq yo'lovchini tashish;

j) Sug'urtalangan TVda ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan belgilangan eng yuqori ruxsat etilgan yuk og'irligidan ortiq yuk tashish;

z) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi yoki uning haydovchisi tomonidan Sug'urtalangan TVni o'quv jarayonlarida, musobaqalarda yoki sinovlarda foydalanish;

i) Sug'urtalangan TV tomonidan O'zbekiston Respublikasining Yo'l harakati qoidalarining XI va XII boblarida belgilangan tezlik rejimini va qaytishib o'tish qoidalarini buzish, temir yo'l kesishmalaridan o'tish qoidalariga rioya etmaslik, svetoforing ta'qilovchi signallarda harakatlanish, qarshi harakat yo'nalishiga chiqish, shuningdek TVni yo'lning qarshi tomoniga yoki qarshi harakat uchun mo'ljallangan yo'lakka haydash;

k) Sug'urtalangan TVni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ravishda bunday huquq va ruxsatga (haydovchilik guvohnomasi, ishonchnoma, yo'l varaqasi, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish polisi va hokazo) ega bo'lmagan shaxs tomonidan boshqarilishi. Ushbu shart Sug'urtalangan TV o'g'irlanganda qo'llanilmaydi;

l) Sug'urtalangan TVni boshqaruvchi shaxs tomonidan charchoq holatida (rulda uxlab qolish), alkogol mastligida yoki narkotik vositalar, psixotrop yoki boshqa aqliy-irodaviy faoliyatga ta'sir etuvchi moddalarga ta'sirida, shuningdek, refleks tezligini pasaytiruvchi dori vositalari ta'sirida boshqargan hollarda, hamda sug'urtalangan TS haydovchisi YTH sodir etilgan joydan yashiringan (hodisa joyini tark etgan) yoki voqea sodir bo'lgan paytdan boshlab, uzog'i bilan bir soat ichida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortgan holatlarda;

m) Sug'urtalangan Tvning dvigateli, uning tizimlari va agregatlarini qizdirish maqsadida ochiq olov manbalaridan foydalanish;

n) TVda olov bilan ehtiyotsiz muomala qilish yoki tamaki chakish natijasida yuzaga kelgan shikastlanish;

o) Sug'urtalangan TV haydovchisining salonda bo'lishidan qat'i nazar, uning o'z-o'zidan harakatlanishi natijasida kelib chiqqan zarar;

p) Sug'urtalangan Tvning salonida, kabinasida, yukxonasida yoki kuzovida bo'lgan hayvonlar tomonidan etkazilgan zarar;

r) Sug'urtalangan Tvning har qanday transport turi orqali tashilishi jarayonida yuz bergan zarar (evakuatorda tashish va Yo'l harakati qoidalariga rioya qilingan holda buksirlash bundan mustasno);

s) Tovar etkazib berish, ta'mirlash/teknik xizmat ko'rsatish yoki sifat kafoleti bo'yicha shartnomalarga muvofiq uchinchi shaxslar javobgar bo'lgan zararlar;

t) Sug'urtalangan Tvning kuzov, tag qismi yoki yonilg'i baklaridagi zanglash (korroziya) natijasida yuzaga kelgan shikastlar;

u) Sug'urta qildiruvchi tomonidan ijaraga olingan, lizing asosida qabul qilingan yoki vaqtincha foydalanilayotgan mol-mulkka (Sug'urtalangan Tvdan tashqari), shuningdek Sug'urtalangan TV ichida bo'lgan, u orqali yuklanayotgan yoki tushirilayotgan mol-mulkka etkazilgan har qanday zarar;

f) Sug'urta hududi doirasidan tashqarida yoki Sug'urta polisi amal qilish muddatidan tashqarida sodir bo'lgan holatlar.

4.2. Ushbu Ofertaga muvofiq, Sug'urtalangan Tvni o'g'irlash (olib qochish) tavakkalchiligi bo'yicha quyidagi holatlar ham sug'urta hodisasi deb tan olinmaydi:

- Sug'urta qildiruvchi yoki transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs tomonidan TV to'xtagan yoki turg'oqda bo'lgan vaqtda, kalit o't oldirish qulfida qoldirilgan yoki TV eshiklari yoki oynalari ochiq holda (qulflanmagan holda) qoldirilgan bo'lsa, Sug'urtalangan Tvning o'g'irlanishi (o'g'irlik yoki olib qochish);

- Sug'urtalangan Tvning davlat ro'yxat raqam belgisi, oyna tozalagich shyotkasining o'g'irlanishi, agar bu holat Tvning o'g'irlanishi (ugon) bilan bir vaqtda sodir etilmagan bo'lsa;

- davlat ro'yxatidan chiqarilgan Sug'urtalangan Tvning o'g'irlanishi (olib qochish), agar ro'yxatdan chiqarish niyati to'g'risida Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchini yozma shaklda oldindan xabardor qilmagan bo'lsa.

4.3. Quyida keltirilgan holatlarda sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan ozod etiladi:

a) harbiy bosqin, harbiy harakatlar, manyovrlar, boshqa harbiy tadbirlar yoki harbiy harakatlarga o'xshash harakatlar (urush e'lon qilingan yoki qilinmaganidan qat'i nazar), fuqarolik urushi natijasida;

b) isyon, ommaviy fuqarolik norozilik harakatlari, milliy miqyosidagi ish tashlashlar natijasida;

v) shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan sodir etilgan terroristik akt natijasida;

g) yadroviy portlash, radiasiya yoki radioaktiv zaharlanish ta'siri natijasida;

d) davlat organlar qarori asosida kredit mablag'lari yoki Sug'urtalangan Tvni olib qo'yish, musodara qilish, rekvizitsiya qilish, xatlash yoki yo'q qilish natijasida.

4.4. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan quyidagi holatlar bo'yicha Sug'urta qildiruvchi oldida majburiyat olmaydi:

— bilvosita va boshqa xarajatlar: jarimalar, ta'mirlash davrida mehmonxonada yashash xarajatlari, xizmat safari xarajatlari, daromad yo'qotilishi, turg'unlik, kafolet muddati tugaganligi bilan bog'liq moddiy yo'qotishlar, ma'naviy zarar va boshqalar shuningdek, har qanday to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita soliqlar hamda zarur bo'lmagan holda amalga oshirilgan boshqa xarajatlar bo'yicha ham Sug'urtalovchi javobgar emas.

4.5. Sug'urtalovchi ushbu Oferta (polisida) ko'rsatilmagan va/yoki bayon etilmagan Sug'urta qildiruvchining har qanday majburiyatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

4.6. Sug'urtalovchi Sug'urta shartnomasi tuzilgan paytda mavjud bo'lgan Tvda shikastlar uchun javobgar emas.

5-BO'LIM. SUG'URTA PULI VA SUG'URTA MUKOFOTI, SUG'URTA MUKOFOTINI TO'LASH TARTIBI

5.1. Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta puli har bir sug'urta ob'ekti uchun alohida belgilanadi va Sug'urta polisida ko'rsatiladi:

5.1.1. Transport vositasi bo'yicha sug'urta puli sug'urta shartnomasi tuzilgan (Sug'urta polisi rasmiylashtirilgan va berilgan) paytda sug'urtaga qabul qilinayotgan transport vositasining sug'urta qiymatidan (haqiqiy, bozor) kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Agar transport vositasi to'liq bo'lmagan sug'urta qiymati bo'yicha sug'urta qilingan bo'lsa, zarami qoplash miqdori O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 936-moddasiga muvofiq sug'urta pulining sug'urta qiymatiga nisbatiga mutanosib ravishda kamaytiriladi.

5.1.2. Haydovchi va yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish bo'yicha sug'urta puli tomonlarning kelishuviga asosan sug'urtalangan transport vositasidagi umumiy o'rinlar soniga («paushal tizim») muvofiq belgilanadi. Bunda sug'urta shartnomasida (Sug'urta polisida) sug'urtalangan transport vositasining «saloniga nisbatan» baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish bo'yicha umumiy sug'urta puli ko'rsatiladi.

5.1.3. Transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini ixtiyoriy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta puli tomonlar o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

5.2. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urta ob'ekti va muddati, sug'urta majburiyatlari hajmini hisobga olgan holda Sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan bazaviy sug'urta tariflari (sug'urta mukofotistavkalari) asosida hisoblanadi. Elektron polisi rasmiylashtirilayotganda hisoblangan sug'urta mukofoti (badali) miqdori Sug'urtalovchining (yoki uning hamkorining) rasmiy veb-saytida/mobil ilovasida yoki axborot tizimida real vaqt rejimida aks ettiriladi.

5.3. Mazkur sug'urta shartlariga muvofiq:

5.3.1. Transport vositasi bo'yicha («Zarar» xavfi bo'yicha) sug'urta puli Tomonlarning kelishuviga ko'ra 50 000 000 (ellik million) so'mdan 50 000 000 000 (ellik milliard) so'mgacha, biroq Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadagi transport vositasining sug'urta qiymatidan yuqori bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Sug'urta tarifi sug'urta pulining 2,0 foizida belgilanadi. Sug'urta mukofoti miqdori sug'urta puli va tegishli sug'urta tarifini ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi hamda Sug'urta polisida ko'rsatiladi.

5.3.2. *Haydovchi va yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urta qilish hamda transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini ixtiyoriy sug'urta qilish bo'yicha* sug'urta puli Tomonlarning kelishuviga ko'ra quyidagi variantlardan birida belgilanadi:

«Baxtsiz hodisa» xavfi		
Variantlar	Sug'urta puli, sum	Yillik sug'urta mukofoti, sum
Variant 1	10 000 000	50 000
Variant 2	20 000 000	80 000
Variant 3	30 000 000	90 000
Variant 4	50 000 000	140 000
«Fuqarolik javobgarligi» xavfi		
Variantlar	Sug'urta puli, sum	Yillik sug'urta mukofoti, sum
Variant 1	20 000 000	80 000
Variant 2	30 000 000	105 000
Variant 3	50 000 000	140 000

Har bir sug'urta ob'ekti bo'yicha sug'urta puli hamda sug'urta mukofotining aniq miqdori Sug'urta polisida belgilanadi.

5.4. Sug'urta mukofoti (badali) quyidagi to'lov usullaridan birida amalga oshiriladi:

- bir yo'la to'lov – jami sug'urta muddati (bir yil) uchun belgilangan miqdorda bir marta to'lanadi;
- bo'lib to'lash (qismlarga bo'lib/badallar shaklida) – yillik sug'urta mukofoti summasi quyidagicha taqsimlanadi:
 - a) bir nechta teng qismga bo'linadi va ular har oyda, har chorakda yoki yarim yilda to'lanadi;
 - b) ikki qismga bo'linadi: yarmi bir yo'la to'lanadi, qolgan yarmi esa 3 yoki 6 oy mobaynida to'lab boriladi.

5.5. Sug'urta mukofoti (badali) Sug'urta qildiruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – "so'm"da, to'lov tizimi operatorlari orqali pul mablag'larini Sug'urtalovchining hisob-kitob hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

6-BO'LIM. SUG'URTA POLISINI BERISH TARTIBI, UNING AMAL QILISH MUDDATI. SUG'URTA SHARTNOMASI (POLISI) NING BEKOR QILINISHI

6.1. Sug'urta polisi real vaqt rejimida (onlayn) Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti/mobil ilovasi orqali yoki Sug'urtalovchi/u vakolat bergan shaxs/hamkorining avtomatlashtirilgan tizimi orqali rasmiylashtiriladi va to'langan sug'urta muddatiga beriladi.

6.2. Elektron sug'urta polisi belgilangan sug'urta mukofoti (to'lov/badal) to'langanidan so'ng, Sug'urta qildiruvchiga polisga havola (ssilka) ko'rinishida, ko'rsatilgan telefon raqamiga SMS-xabaroma orqali yuboriladi.

6.3. Sug'urta polisi sug'urta davrining boshlanishi sifatida ko'rsatilgan kunning 00:00 soatidan kuchga kiradi va polisda ko'rsatilgan tugash kunining 24:00 soatigacha amal qiladi. Sug'urtalovchi sug'urta polisi kuchga kirishiga qadar TV bilan ro'y bergan voqealar bo'yicha javobgarlik olib bormaydi.

6.4. Sug'urta polisini olgandan so'ng Sug'urta qildiruvchi 3 (uch) kun ichida transport vositasini ko'zdan kechirish uchun (monitoring) Sug'urtalovchiga etkazishga yoki sug'urtalangan transport vositasini onlayn namoyish qilishga majbur. Ushbu shart muddatida va tegishli tartibda Sug'urta qildiruvchi tomonidan bajarilmasligi Sug'urtalovchiga sug'urta polisini muddatidan avval to'xtatish va to'langan sug'urta mukofotini to'liq hajmda qaytarish huquqini beradi.

6.5. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) har qaysi Tomonning yozma arizasi yoki elektron bildirishnomasi asosida bekor qilinishi mumkin, agar ushbu ariza yoki bildirishnoma shartnoma to'xtatilishi mo'ljallanayotgan sanadan kamida 30 (o'ttiz) kun oldin taqdim etilgan bo'lsa.

6.6. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) quyidagi holatlarda o'z kuchini yo'qotadi:

- a) Sug'urta polisi bo'yicha sug'urta davri tugaganida;
- b) Sug'urtalovchi sug'urta to'lovlari (tovonlari) bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq hajmda bajargan taqdirda. Bunda, sug'urta shartnomasidagi sug'urta tovonlari umumiy summasi ushbu ob'ekt uchun belgilangan sug'urta puliga etgan sug'urta ob'ekti bo'yicha to'xtatiladi;

v) O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, ushbu Oferta va sug'urta Qoidalarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

6.7. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi), agar u kuchga kirganidan so'ng sug'urta hodisasi yuz berish ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjudligi sug'urta hodisasiga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli to'xtasa amal qilish muddati tugamasidan oldin to'xtatiladi. Bunday holatlarga, jumladan, quyidagilar kiradi:

- a) sug'urta hodisasi yuz bermagan holatda sug'urtalangan transport vositasining yo'q bo'lishi (nobud bo'lishi);
- b) Sug'urta qildiruvchi (yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor) o'z tadbirkorlik faoliyatini belgilangan tartibda tugatgan holda.

6.8. Agar Sug'urta qildiruvchi ushbu Ofertaning 6.7-bandida nazarda tutilgan holatlar bo'yicha shartnomani (Sug'urta polisini) muddatidan oldin bekor qilsa, Sug'urtalovchi sug'urta mukofotini tugamagan sug'urta davriga mutanosib ravishda, to'langan sug'urta mukofotining 25% gacha bo'lgan miqdorda sug'urtani amalga oshirish xarajatlarini ushlab qolgan holda qaytarishni amalga oshiradi.

Agar qaytarilishi lozim bo'lgan ishlab topilmagan sug'urta mukofotining qoldig'i Sug'urtalovchining ma'muriy-boshqaruv xarajatlarini qoplash uchun etarli bo'lmasa yoki ariza taqdim etilgan paytda Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi bo'yicha zarami qoplash haqida da'vo bildirilgan bo'lsa, yoxud Sug'urtalovchi tomonidan qandaydir sug'urta to'lovni to'langan bo'lsa, bunda to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

6.9. Sug'urta qildiruvchi, mazkur Ofertaning 6.7-bandida ko'rsatilgan holatlar asosida sug'urta hodisasining yuz berishi imkoniyati saqlanib turgan taqdirda, har qanday vaqtda sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)dan voz kechishga haqli. Bunda, Sug'urtalovchining foydasiga to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

7-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Ushbu Oferta doirasida:

7.1.1. **Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:**

a) Shartnoma bo'yicha Sug'urtalovchi qandaydir majburiyatni bajarishidan yoki sug'urta tovonini to'lash haqida talabnoma qabul qilinishidan oldin, Sug'urtalovchini yozma xabardor qilgan holda, Naf oluvchini almashtirish;

b) Sug'urtalovchi bilan kelishuv asosida Shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

v) Shartnoma doirasida Sug'urtalovchidan maslahatlar olish.

7.1.2. **Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:**

a) sug'urta shartnomasida belgilangan tartib va muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash;

b) sug'urtaga olingan transport vositasini Sug'urtalovchiga ko'rikdan o'tkazish (monitoring) uchun taqdim etish va bunga doir zarur hujjatlarni (ko'zdan kechirish dalolatnomasi va boshqalar) imzolash yoki ushbu Ofertada belgilangan muddatda transport vositasini onlayn tarzda namoyish qilish;

v) sug'urtalangan transport vositasidan foydalanish va uni texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'rsatmalarga (qoidalar, qo'llanmalar) rioya etish;

g) transport vositasini tark etayotganda, uning original kalitlarini hamda o'g'irlikka qarshi tizimlar pultlarini uning ichida qoldirmaslik;

d) Sug'urtalangan transport vositasini boshqarishga ruxsat etilgan shaxslarga ushbu sug'urtalash shartlarida belgilangan shart va talablarni etkazish;

e) sug'urta shartnomasi tuzilgan paytda Sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan va sug'urta xavfining oshishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha muhim o'zgarishlar to'g'risida Sug'urtalovchini 3 (uch) ish kuni ichida yozma ravishda darhol xabardor qilish. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasida, Ariza-so'rovnoma da aniq ko'rsatilgan holatlardagi o'zgarishlar muhim o'zgarishlar deb quyidagi holatlarda hisoblanadi:

– transport vositasini ijaraga (subijaraga) yoki prokatga berish, mulkdorini almashtirish va shunga o'xshash holatlar;

– transport vositasidan foydalanish maqsadlarining o'zgarishi (karshering, tijorat asosida taksi sifatida foydalanish, sport tadbirlarida ishtirok etish va boshqalar).

j) sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda Sug'urtalangan transport vositasini nazoratsiz qoldirmaslik hamda mavjud vaziyatda aqliy va mumkin bo'lgan choralarini ko'rish orqali zarar/talofatni oldini olish, kamaytirish yoki bartaraf etish bo'yicha harakatlar ko'rish (yong'inni o'chirish, yo'lovchilar/jabrlanuvchilarni qutqarish va h.k.), shuningdek ushbu Ofertani **8.1–8.2-bandlarda** ko'rsatilgan harakatlarni zudlik bilan amalga oshirish;

z) Sug'urtalovchi yoki uning vakillariga istalgan vaqtda sug'urtalangan transport vositasi va uning qismlarini ko'zdan kechirish uchun kirish imkonini ta'minlash;

i) sug'urtalangan, shikastlangan transport vositasini ta'mirlash va tiklash ishlari boshlanishidan oldin, Sug'urtalovchi bilan ko'rik o'tkazish joyi, sanasi va vaqtini kelishib olish, Sug'urtalovchi bilan oldindan kelishuvsiz, sug'urtalangan transport vositasining qismlarini demontaj qilish yoki ta'mirlash ishlari boshlanishiga atrofda gilar, yaqindagi binolar, haydovchi va/yoki yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash zarurati yoki vakolatli organlar buyruqlari va topshiriqlarini bajarish talab etiladigan vaziyatlar bundan mustasno;

k) agar o'g'irlangan transport vositasi topilsa va/yoki Sug'urta qildiruvchiga qaytarilsa, Sug'urtalovchidan olingan sug'urta tovonini qaytarish (agar transport vositasi shikastlangan holda topilsa, Sug'urta qildiruvchiga keyinchalik ko'rilgan zarar qoplab beriladi);

l) agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan da'vo muddatlari davomida sug'urta tovonini to'liq yoki qisman to'lash huquqini qonun yoki sug'urta shartlariga muvofiq bekor qiluvchi holatlar aniqlansa, Sug'urtalovchi tomonidan to'langan sug'urta tovonini to'liq yoki tegishli qismida qaytarish;

m) Sug'urtalovchidan olingan ma'lumotlarni maxfiy saqlash, Sug'urta qildiruvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ushbu ma'lumotlarni davlat organlari va boshqa tashkilotlarga taqdim etishga majburligi holati bundan mustasno.

7.1.3. **Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:**

a) hujjatlarni rasmiylashtirishda faksimil (nusxa) imzodan yoki elektron raqamli imzodan foydalanish, bunda ushbu imzo hujjatni imzolagan shaxsning shaxsiy qo'l imzosi bilan tenglashtiriladi;

b) sug'urta shartnomasi tuzilayotganda yoki sug'urta to'lovi to'g'risida qaror qabul qilina yotganda Sug'urta qildiruvchi va (mavjud bo'lsa) Naf oluvchining mulkiy manfaatlariga egalik holatini tekshirish;

v) shikastlangan transport vositasini ko'zdan kechirish, ko'rik dalolatnomalarini imzolash;

g) yuz bergan hodisa bilan bog'liq ma'lumotlarni mustaqil ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, shuningdek voqea holatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan boshqa muassasa va tashkilotlardan so'rab olish, hamda sug'urta voqeasining sabab va sharoitlarini mustaqil aniqlash;

d) tiklash xarajatlarning asosli miqdori doirasida harakat qilgan holda, shikastlangan transport vositasini ta'mirlashning haqiqiy (eng kam) qiymatini aks ettiruvchi hujjatni mustaqil tarzda aniqlash va shu hujjatni sug'urta to'lovini to'lovini amalga oshirishda asos sifatida qabul qilish;

e) agar keltirilgan zarar yuzasidan tergov harakatlari boshlangan yoki jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, tergov yakunlanganiga qadar sug'urta to'lovini to'lovini kechiktirish, yoxud agar Sug'urta qildiruvchining tovon pulini olish huquqiga nisbatan shubhalar mavjud bo'lsa — zarur bo'lgan dalillar taqdim etilgunga qadar sug'urta tovonini to'lashni kechiktirish;

j) ushbu Ofertaning **7.1.2-bandie**) kichik bandida ko'rsatilgan, sug'urta xavfining ortishiga olib keluvchi holatlar haqida xabardor qilingan taqdirda, qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lashni talab qilish. Agar Sug'urta qildiruvchi ushbu Ofertada nazarda tutilgan sug'urta shartlariga o'zgartirish kiritishga yoki qo'shimcha mukofot to'lashga qarshi chiqsa, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda sug'urta shartnomasi (polisi) ni bekor qilishni talab qilish huquqiga ega;

z) agar Sug'urta qildiruvchi ushbu Ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bekor qilish (Sug'urta polisini tugatish) va shartnoma bekor qilinishi (polis tugatilishi) natijasida etkazilgan zararlarni qoplashni talab qilish;

i) quyidagi holatlarda sug'urta to'voni to'lashdan bosh tortish:

- agar Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta va sug'urta Qoidalarini bajarmagan bo'lsa;
- sug'urta hodisasi hisoblanmaydigan voqealar natijasida Sug'urtalangan transport vositasiga zarar etkazilgan bo'lsa;
- agar Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchi / Haydovchi sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida ushbu Ofertada belgilangan muddatlarda, asosli sababsiz, o'z vaqtida Sug'urtalovchiga xabar bermagan bo'lsa;
- agar Sug'urta qildiruvchi ta'mirlash ishlari boshlanishidan oldin shikastlangan transport vositasini ko'rik uchun Sug'urtalovchiga taqdim etmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi ko'rikdan o'tkazishdan voz kechgan holatlar bundan mustasno;
- agar Sug'urta qildiruvchi zarar etkazgan shaxsga nisbatan da'volaridan yoki unga nisbatan talablar qo'yish huquqini ta'minlovchi huquqlaridan voz kechgan bo'lsa, shuningdek regress talabi yuzasidan da'vo qo'zg'atish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni Sug'urtalovchiga topshirishdan bosh tortgan bo'lsa.

7.1.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

a) ushbu Ofertada belgilangan tartibda Sug'urta polisini rasmiylashtirish / yuborish;

b) barcha zarur hujjatlarni qabul qilib olgandan va sug'urta hodisasi yuz berganligini tan olgandan so'ng, ushbu Ofertada belgilangan miqdor va muddatlarda sug'urta to'vonini to'lash;

v) Sug'urta polisi amal qilgan davrda Sug'urta qildiruvchidan olingan ma'lumotlarni maxfiy saqlash, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ushbu ma'lumotlarni davlat organlari va boshqa tashkilotlarga taqdim etishga majburligi holati bundan mustasno.

8-BO'LIM. SUG'URTA TO'VONINI TO'LASH YUZASIDAN ARIZANI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

8.1. Sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi yoki sug'urta to'vonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs quyidagilarga majbur:

8.1.1. sug'urta hodisasi yuz bergan kundan kechikmay 3 (uch) kalendar kuni ichida ushbu voqea haqida Sug'urtalovchini har qanday mavjud usulda (Sug'urta shartnomasida (Sug'urta polisida) ko'rsatilgan telefon raqami orqali va h.k.) xabardor qilish;

